XALQ DEPUTATLARI NARPAY TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 30 - dekabr VI-63-170-7-98-K/22 Narpay tumani hokimligi

Samarqand viloyati Narpay tumanining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Samarqand viloyati xalq deputatlari Kengashining 2022-yil 29-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-79-250-7-0-K/22-sonli qaroriga muvofiq, 2023-yil uchun Narpay tumani byudjetini qabul qilish bo‘yicha xalq deputatlari Narpay tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Samarqand viloyati xalq deputatlari Kengashining 2022-yil 29-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-79-250-7-0-K/22-sonli qaroriga asosan Narpay tumani byudjetiga Samarqand viloyati byudjetidan ajratilgan:

tartibga soluvchi byudjetlararo transfert 107 178 994,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi;

bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozining ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonunida belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman byudjetining aylanma kassa mablag‘i 1 306 000,0 ming so‘m miqdorda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashi qaroriga asosan 2023-yilda:

a) Quyidagi soliq turlari tuman byudjetiga to‘liqligicha o‘tkazib beriladi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;
- jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;
- qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq, bundan sement xom ashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno;
- yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;
- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;
- yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;
- aylanmadan olinadigan soliq;
- qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini ijaraga berish va xususiylashtirishdan tushadigan daromadlar;
- ayrim tovarlarning chakana savdosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yig‘im;
- avtotransport vositalarini xarid qilganlik uchun ularni ichki ishlar organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish chog‘ida avtotransport egalari (foydalanuvchilari) tomonidan to‘lanadigan yig‘imlar.

Mobil aloqa xizmati, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun va sigaret mahsuloti uchun aksiz solig‘idan tushumlar tegishli ravishda 2022-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa to‘lovlar viloyatning viloyat byudjeti hamda tuman mahalliy byudjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) 75 foiz miqdorda tuman byudjetiga;

- foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 60 foiz miqdorda tuman byudjetiga o‘tkazib beriladi.

2023-yil uchun tuman byudjeti daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjetidan 2023-yilgi hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023-yil uchun tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2 318 892,0 ming so‘m hamda “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” hajmi 11 594 462,0 ming so‘m miqdorlarida belgilansin.

6. Tuman hokimligi birinchi o‘rinbosari (A.Boliyev), tuman hokimligi moliya bo‘limi (N.Tuyinov), tuman soliq inspeksiyasi (N.Razzakov):

-har chorak yakuni bilan keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar rasmiy veb-saytlarga o‘z tasarrufidagi byudjet tashkilotlari kesimida moliyaviy hisobotlarni hamda boshqa tegishli ma’lumotlarni joylashtirsin;

-byudjet daromadlari va xarajatlarining ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish, byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatishi uchun tuman Kengashiga doimiy ravishda ma’lumot kiritib borsin.

O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Davurovga, ijrosini ta’minlash moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Boliyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Sh.Raxmanov**

Xalq deputatlari Narpay tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-63-170-7-98-K/22-son qaroriga
1-ilova

Samarqand viloyatining Narpay tumani mahalliy byudjetining daromadlarining 2023-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/P	Daromad turlari	Jami
JAMI		**138 623 600,0**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	7 155 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	11 750 000,0
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	2 273 000,0
4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	3 044 000,0
5	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq, bundan sement xom ashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno	650 000,0
6	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	3 781 000,0
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	17 297 000,0
8	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	7 758 000,0
9	Aylanmadan soliq	6 840 000,0
10	Qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini ijaraga berish va xususiylashtirishdan tushadigan daromadlar	128 000,0
11	Qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona yig‘imlaridan tashqari)	466 000,0
12	Ayrim tovarlarning chakana savdosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yig‘im	
13	Avtotransport vositalarini xarid qilganlik uchun ularni ichki ishlar organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish chog‘ida avtotransport egalari (foydalanuvchilari) tomonidan to‘lanadigan yig‘imlar	
14	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari)	36 816 000,0

15	Foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘xatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari)	4 776 600,0
16	Aksiz-mobil aloqa xizmati uchun	6 228 000,0
17	Aksiz-alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun	14 519 000,0
18	Sigaret uchun aksiz solig‘i	15 142 000,0

Xalq deputatlari Narpay tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-63-170-7-98-K/22-son qaroriga
2-ilova

2023-yilgi hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	2023-yil
Narpay tuman bo‘yicha xarajatlari miqdori, Jami		**245 802 594,0**
1.	Tuman xalq ta’limi bo‘limi	12 593 218,0
2.	Tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi	17 020 935,0
3.	Tuman tibbiyot birlashmasi	79 082 000,0
4.	Tuman madaniyat bo‘limi	8 246 644,0
5.	Tuman jismoniy tarbiya va sport bo‘limi	4 319 530,0
6.	Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1 222 959,0
7.	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	2 137 250,0
8.	Tuman bandlikka ko‘maklashish markazi	818 781,0
9.	Tuman hokimligi moliya bo‘limi	1 612 608,0
10.	Tuman hokimligi	104 929 786,0
11.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narpay tumanidagi muassasalar	570 225,0
12	Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati	205 932,0
13.	Yoshlar ishlari agentligi Narpay tuman bo‘limi	5 268 415,0
14.	Tuman oila va xotin-qizlar bo‘limi	3 333 905,0
15.	Tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi	4 440 406,0